Ilmurodova Dilobar Khamzaevna (Karshi branch of TUIT named after Muhammad al-Khorezmi of the, Kashkadarya region, Uzbekistan; dilobar.ilmurodova@mail.ru)

METHODOLOGY FOR ASSESSING THE THEORETICAL KNOWLEDGE OF HUMANITIES TEACHERS IN THE FIELD OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Annotation. *This article presents methodological recommendations for monitoring the information-communicative and ICT competencies of teachers in the humanities education system, based on the developed levels for assessing their theoretical knowledge, based on a competency-based approach.*

Keywords: *education, competency-based education, information and communication competence, ICT competence, monitoring, assessment levels.*

Kirish (Introduction). Bugungi kun ta'lim sharoitida o'qituvchilarda umummadaniy, fan va maxsus kompetensiyalarni shakllangan bo'lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'qituvchisi AKT kompetensiyasi kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati, jumladan, asosiy kompyuter savodxonligi, kasbiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalana olish qobiliyatidir. Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirish jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va ulardan foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan usullar, orqali axborotni taqdim etish, uni tinglovchiga zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalangan holda yetkazish qobiliyati o'qituvchining intellektual va hissiy-axloqiy madaniyatining sifat jihatidan yangi darajasini ta'minlaydi, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ichki ehtiyojni yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). AKT kompetensiyasini tushunish o'qituvchida quyidagi ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi:

– axborotni taqdim etish – kerakli ma'lumotlarni aniqlash va tegishli tarzda taqdim etish uchun AKT vositalaridan foydalanish qobiliyati;

– axborotga kirish – internet vositalari va xizmatlaridan hamda shu maqsadda dasturiy ta'minotdan foydalangan holda, ma'lumotlarni qidirish, to'plash yoki chiqarib olish imkoniyati;

– axborotni tanqidiy baholash – axborotning sifati, ahamiyati, foydaliligi, samaradorligi, shuning--dek, uning ishonchliligi, ilmiy xususiyati va maqsadli yo'naltirilganligi to'g'risida xulosa chiqarish qobiliyati;

– axborot yaratish – axborotni sharhlash va taqdim etish qobiliyati (ma'lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash va taqqoslash), asosiy ofis dasturlari yordamida axborotni yaratish (moslashtirish, loyihalash, ishlab chiqish) va axborotni elektron shaklda formatlash qobiliyati;

– aloqa va axborot almashinuvi – AKT muhitida axborotni to'g'ri uzatish qobiliyati [5].

A.A.Elizarov AKT kompetensiyasini bilim, ko'nikma va tajriba to'plami sifatida tushunadi. Aynan shunday tajribaning mavjudligi, muallifning fikriga ko'ra, kasbiy funksiyalarni bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega [1]. Shu bilan birga, bir qator olimlar (T.S.Panina, S.A.Dochkin, Y.V.Kletsov)ning zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi haqidagi fikrlari mavjud [2]:

–o'qituvchining fanlarini o'qitish jarayonida, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining vositalari hamda usullaridan foydalangan holda kasbga doir muammolarni hal qila olish qobiliyati;

– kasbiy faoliyat davomida AKTning zamonaviy vositalaridan foydalanish bo'yicha erishilgan yutuqlarining darajasini aks ettiruvchi xususiyat, shaxsiy sifatlar;

– AKTning zamonaviy vositalaridan foydalaanish bilan kasbiy va pedagogik faoliyatda yuzaga kelgan vaziyatlarni to'g'ri baholay olish va samarali bo'lgan qarorlarni qabul qilish.

E.K.Henner asarlarida axborot kompetensiyasi deganda informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha o'qitish va o'z-o'zini o'rganish jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar majmuyi, shuningdek, pedagogik faoliyatni amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Shunga muvofiq axborot kompetensiyasi uch komponentdan iborat: bilish, foydalana olish, o'quv faoliyatini tashkil etishda qo'llay olish hisoblanadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchi faoliyatining mazmunini aks ettiruvchi o'qituvchilarning AKT kompetensiyalarini monitoring qilish o'qituvchining kasbiy faoliyatini o'rganish sohasidagi faol rivojlanayotgan tadqiqot yo'nalishlaridan biridir [6].

O'qituvchining AKT kompetensiyasini tahlil qilish axborotlarni tanlash, ularni qayta ishlash, yaratish, joylashtirish hamda axborot va ta'lim jarayonlarida aloqani tashkil etish kabi operatsion komponentlarni aniqlashga imkon berdi.

Gumanitar fan o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazariy bilimlarini baholash darajalarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

(2). Панина Т.С., Дочкин С.А., Клецов Ю.В. Уровни информационно-коммуникационной компетентности педагогических работников [электронный ресурс]. http://www.belpc.ru/krirpo/index.php]

(3). Хеннер Е.К. Структурирование и формализация требований к компьютерной грамотности и ИКТ-компетентности субъектов системы непрерывного образования. Информатизация образования и науки. 2009, № 2, с. 71–85.

(4). Хеннер Е.К., Шестаков А.П. Информационно-коммуникационная компетентность учителя: структура, требования и система измерения. "Информатика и образование", 2004, № 12, с. 5 – 9.

(5). ЕВ Якушина. "Народное образование", ИКТ-компетентность: что нужно знать и уметь учителю. 2013, №1, с. 184–187.

(6). Hamzayevna I.D. Kasb-hunar maktablari ijtimoiy fanlar o'qituvchilari akt kompetensiyasilarini baholashda yondashuvlar. Kasb-hunar ta'limi мундарижа, с. 50.

Sattorova Feruza Elmurodovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti katta o'qituvchi, PhD, doktorant)

CHET TILI TA'LIMIGA KOGNITIV YONDASHUV HAQIDA MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada til o'rganishda va o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan kognitiv yondashuv haqida asosiy ma'lumotlar berilib, bu yondashuvning til o'zlashtirishga yordami, shuningdek, til o'rganish va tilni o'zlashtirish tushunchalar o'rtasidagi farqlar haqida mulohazalar berilgan. Til ta'limida bu yondashuvdan foydalanish til va undan foydalanish o'rtasida vujudga keladigan bo'shliq – pragmatik interferensiyani bartaraf etishga ko'maklashishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv yondashuv, kommunikativ yondashuv, til o'rganish, til o'zlashtirish, pragmatik interferensiya.*

Сатторова Феруза Элмуродовна (Самаркандский государственный институт иностранных языков, старший преподаватель, PhD, докторант)

СООБРАЖЕНИЯ О КОГНИТИВНОМ ПОДХОДЕ К ИНОСТРАННОЯЗЫЧНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Аннотация. *В статье представлен обзор когнитивного подхода к изучению и преподаванию языка, его вклад в овладение языком, а также приведены различия между концепциями изучения языка и овладения языком. Думается, что использование этого подхода в языковом обра-зовании может помочь устранить разрыв между языком и его использованием – прагматическую интерференцию.*

Ключевые слова: *когнитивный подход, коммуникативный подход, изучение языка, овладение языком, прагматическая интерфереция.*

Sattorova Feruza Elmurodovna (Samarkand State Institute of Foreign languages Senior teacher, PhD, doctorant)

THE COGNITIVE APPROACH TO FOREIGN LANGUAGE EDUCATION: OVERVIEW

Annotation*. This article provides an overview of the cognitive approach to language learning and teaching, its contribution to language acquisition, and the differences between the concepts of language learning and language acquisition. It is thought that the use of this approach in language education can help to eliminate the gap between language and its use, in other words, elimination of pragmatic interference.*

Key words: *cognitive approach, communicative approach, language learning, language acquisition, pragmatic interference.*

Kirish. Ma'lumki, hozirgi globallashuv davrida sodir bo'layotgan to'xtovsiz yangiliklar va rivojlanish til ta'limiga talablarning tobora oshishiga olib kelmoqda, bunda har tomonlama malakali kadrlarni yetkazib berish, o'quvchi-talabalarning sohalari bo'yicha eng so'nggi bilimlarni o'zlashtirishi, pirovardida ularning kelajakda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishi maqsad qilingan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari tog'risidagi" PQ 5117-qaror turli soha mutaxassislarining salohiyatini oshirish va xorijiy tilni talab darajasida o'rganganlarni moliyaviy rag'batlantirish kabi harakatlar orqali yurtimiz yoshlarini chet tillarini o'rganishga ruhlantirish ko'zda tutilgan edi. Afsuski, "dunyo mamlakatlarida ingliz tilini bilish darajasini baholovchi eng yirik reyting–EF English Proficiency Index 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, yurtimiz aholisi ingliz tilini bilish bo'yicha eng past mamlakatlar qatorida qolmoqda" [1]. Til o'rganish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramay, til bilish darajasining pasayishiga bizga ma'lum bo'lmagan juda ko'p omillar bo'lishi mumkin, lekin ingliz tili o'qituvchisi sifatida nuqtayi nazarimiz til o'rganish uchun sarflanadigan mehnat va vaqt talabi o'rganuvchilar sonining kamayishiga olib kelmoqda. Jumladan, til ta'limini

matik muammolar ildizi deb hisoblaymiz. Zero, pragmatik adabiyotlar tahlili, hozirgi davrda grammatik salbiy transformalardan ko'ra pragmatik muvaffaqiyatsizliklar kommunikatsiyada to'siqlarga ko'proq sabab bo'lyapti. Bundan tashqari, "konseptual tizimdagi nomutanosiblik til sohiblarining hayot tajribasidagi farqlar bilan bog'liq" [4;206-b.] degan mulohazalar ham tillararo interferensiyaga va suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini tushunish faoliyatiga ham salbiy ta'sir etishi mumkinligini e'tirof etmaslikning iloji yo'q.

Tadqiqot metodologiyasi. Masalan, turli tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, biror-bir taklifni rad etish uchun haqiqiy ingliz *I would love, but...* deb rad etishning "yumshoq yo'li"ni tanlasa, ingliz tilini chet tili sifatida qo'llovchi ko'plab insonlar oddiyroq va to'g'ridan to'g'ri *Sorry I have other plans for that day* deya javob berishni ma'qul ko'rishadi. Bunga sabab ularning ochiqdan ochiq rad etish me'yoriy hisoblangan jamiyatda voyaga yetganliklari ehtimoldan xoli emas. Ikkinchidan, chet tilida so'zlovchida bunday diskursiv koeziyadan *–I would love to...* dan foydalanish ko'nikmasi shakllanmaganligi bo'lishi mumkin. Uchinchidan, so'zlovchining ona tilida bunday qurilmaning mavjud emasligi ham pragmatik nomutanosiblikka yetaklashi mumkin.

Ammo tajribali o'qituvchi tilni o'zlashtirishdagi duch kelinadigan bunday qiyinchiliklarni yumshatish uchun til o'zlashtirishda muhim bo'lgan ijtimoiy muhitga yaqin sharoitni til ta'limiga olib kirish kerak. Shunday imkoniyatni beradigan ta'limga kognitiv yondashuvni umumiy tadqiqini ushbu maqolada ko'rib chiqamiz. Bu yondashuv til ta'limida vaziyatlarni ingliz tilida so'zlashuvchilarga odatiy bo'lgan muhitga ko'ra hayotiy muloqot qoidalariga muvofiq modellashtirish bilan shug'ullanadi. Garchi kommunikativ yondashuv o'quvchilarning ehtiyojiga, tildan vazifaviy foydalanishga, o'quvchilarning kommunikativ qobilyat va ko'nikmalariga e'tibor qaratsada, bu yondashuv bugungi kunning globallashuv talablariga yetarlicha javob bermaydi. Natijada yangi yondashuvlarga va ularning mavjud yondashuvlar bilan uyg'unlashuviga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa ta'limning barcha bog'inlarida chet tili ta'limidagi muammolar mazmunini ongli o'rganish orqali ba'zi bir maqsadli ko'nikmalarni shakllantirishda muhim sanaladi. Til ta'limi bo'yicha mutaxassislar fikricha ushbu turdagi o'quv muhitini yaratishda kognitiv tilshunoslik yutuqlaridan samarali foydalanish mumkin. Zero, professor Sh.Safarov ta'kidlaganidek, "bilim olish va saqlash, uni amalda qo'llash va uzatish manbai va nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo'lgan til tizimi kognitiv tahlil obyekti ekanligiga hech qanday shubha yo'q" [4:11-b.]. Kognitiv yondashuv til ilmi qoidalarini tushunish asnosida mazmunli o'rganish va mazmunli amaliyotga urg'u beradi [5:25-b.]. Bu yondashuvning asosiy g'oyasi o'quv jarayonida bilimlarni egallashga, aniqrog'i, xulosa chiqarishga, tuzilishiga va uning birliklarini tizimli ravishda tartibga solish, saqlash va qo'llashga mo'ljallangan. Kognitiv yondashuvda idrok etish jarayoni ma'lumotlarni tajriba, his-tuyg'u va fikrlash orqali miyaga singdirishdir. Bu fikrlash, eslab qolish, o'rganish va foydalanishni o'z ichiga oladi. Ta'limda kognitiv yondashuv mavjud bilimlar bilan yangi ma'lumot va tushunchalar o'tasidagi bog'liqlikni tushunishga, axborotni analiz (tafsilotlari bilan o'rganish) va sintez (qayta qurish)-ga yordam beradi. Natijada bunday jarayon xotirani mustahkamlaydi va eslab qolish jarayonini yuqori darajada oshiradi. Kognitiv ta'lim bilishning barcha shakllarini, jumladan, xotira, psixolingvistika, fikrlash, tushunish, idrok etish va qo'llashni qamrab oladi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi vaqtda keng qo'llanib kelayotgan chet tili ta'limida kommunikativ yondashuv til o'rganuvchilarning turli maqsadlari va kasbiy muhit talablarini qondirishga intilmoqda. Ammo til ta'limidagi yangi talablar va o'qitishni takomillashtirish uchun kommunikativ va kognitiv paradigamalar sintezini amalga oshirish xorijiy tillarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ularning integratsiyasi o'quvchilarni o'rganilayotgan tildagi lisoniy bilimlarni ongli ravishda egallashga va o'quv va fan sohasidagi mazmuniy bilimlarni kommunikativ vaziyatga bog'liq ravishda qo'llashga yordam beradi. Shunday qilib, kommunikativlikning asosiy yo'nalishi bo'lgan tilni bilish, muloqot qila olish kompetensiyasi, til ko'nikmalari, nutqning ravonligi va aniqligi, til boyligi va xilma-xilligi tilni deduktiv o'qitish usuli kognitiv yo'naslishdagi metalingvistik ongga asoslangan kognitiv qobilyat, bilimlarni tizimlashtirish malakasi, konseptual ravonlik, foydalanilayotgan tilning konteksga mosligi, pragmatik adekvatlik va induktiv texnikalar bilan takomillashtiriladi. Bunda o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilish bilan o'quvchilar uchun interaktiv, haqiqiy va qiziqarli o'qitish muhitini yarata oladi. Kognitiv yondashuvga asoslangan texnologiyalar ma'lumotlarni moslashtirish, birlashtirish, guruhlash, umumlashtirish, fikrlash, xulosa chiqarish kabi mashqlarga asoslanishi kerak. Tilni o'rgatishda o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab kognitiv strategiyalar mavjud. Biroq o'quvchilarning fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ko'ra, ularning aqliy jarayonlarini rivojlantirishga muhim e'tibor qaratish lozim. Masalan, o'quvchilar yangi lug'atlarni takrorlay olish, lingvistik tuzilmani tartibga solish, kontekstdan ma'noni taxmin qilish va va ularning inikosini miyasida aks ettirish kabi harakatlarni amalga oshira oladi. Talabalar to-

monidan olib boriladigan ushbu tadbirlar o‘quvchilarga tilni faol o‘zlashtirish va qayta ishlashga imkon beradi .

Xulosa va takliflar. Xullas, til – belgilar tizimiga asoslangan muloqot shakli. Ammo tilni tushunarli qiladigan omil bu tildan ma’lum bir jamiyatda qabul qilingan me’yorlarga asosan muloqotga kirisha olish qobilyatini egallshdir. Ingliz tili chet tili hisobanadigan O‘zbekiston sharoitida o‘quvchilar bu tilning lingvistik, madaniy va tarixiy kelib chiqishi bo‘yicha tajribaga ega emaslar. Bundan tashqari, ular ingliz tilini faqatgina o‘quv xonalarida qo‘llash bilan cheklanadilar. Shuningdek, o‘quvchilarning ingliz tilidagi mavjud bilimlari va darsda o‘zlashtirilgan yangi bilimlar o‘rtasida aloqadorlik, ko‘pincha, uzilib qolgan. Talabalarning til haqidagi bilimlarini shakllantirishdagi to‘siqlarni yumshatishga til ta’limiga kognitiv yondashuv orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://kun.uz/news/2024/11/13

(2). Kenneth R.Rose, Gabriele K. Pragmatics in language teaching. Cambridge, Cambridge University Press, 2001, p. 18.

(3). Петровская Л.А. Теоретические и методологические проблемы социально-психологического тренинга. М., МГУ, 1982, с. 128.

(4). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Ж., “Сангзор”, 2006, 92-бет.

(5). Safarov Shaxriyor. Til nazariyasi va lingvometodologiyasi. Monografiya, T., “BAYOZ”, 2015, 216-bet.

(6). Boers F., Lindstromberg S. Cognitive linguistic approaches to teaching vocabulary and phraseology. Berlin, Mounton de Gruyter, 2008, p. 25.

(7). Kasper Gabriele. Pragmatik transfer. Second Language Research, Volume 8(3), 2001, p. 207.

(9). Krashen S.D. Second Language Acquisition and Second Language Learning. Oxford: Pergamon, 1981, p. 18.

Begimova Gulshoda Jahon qizi (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi assistenti; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com; UO‘K 8.81.81-13.81’23)

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MEXATRONIKA YO‘NALISHI TALABALARINING PRODUKTIV KO‘NIKMALARINI INTERFAOL-AXBOROT MUHITIDA TAKOMILLASHTIRISH SHARTLARI

Annotatsiya. *Ingliz tilini mexatronika yo‘nalishi talabalari uchun o‘qitishda produktiv ko‘nikmalarini takomillashtirishda interfaol-axborot muhitidan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy talablaridan biridir. Bu yo‘nalishda talabalar nafaqat tilni bilishlari, balki o‘z sohalari bilan bog‘liq texnik atamalar va tushunchalarni ingliz tilida aniq va to‘g‘ri ifodalashni o‘rganishlari kerak.*

Kalit so‘zlar: *mexatronika, produktiv ko‘nikma, interfaol metod, integratsiya, motivatsion yondashuv.*

Бегимова Гулшода Жахон кызы (Каршинский Инженерно-экономический институт, ассистент кафедры иностранных языков; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com)

УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОДУКТИВНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ПО МЕХАТРОНИКЕ В ИНТЕРАКТИВНО-ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *Использование интерактивно-информационной среды в обучении английскому языку студентов по направлению «мехатроника» является одним из ключевых требований современного образовательного процесса. В этом направлении студенты должны не только овладеть языком, но и научиться точно и правильно выражать технические термины и понятия, связанные с их профессиональной областью, на английском языке.*

Ключевые слова: *мехатроника, продуктивные навыки, интерактивный метод, интеграция, мотивационный подход.*

Begimova Gulshoda Jahon qizi (Karshi Engineering-Economics InstituteAssistant at the Department of Foreign Languages; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com)

CONDITIONS FOR IMPROVING THE PRODUCTIVE SKILLS OF MECHATRONICS STUDENTS IN AN INTERACTIVE-INFORMATION ENVIRONMENT IN TEACHING ENGLISH

Annotation. *The use of an interactive information environment to enhance productive skills in teaching English to students of mechatronics is one of the main requirements of the modern educational*